TARIXIY ROMAN JANRIDA TARIXGA MUNOSABAT VA BADIIY TALQINDAGI YANGILANISHLAR

Jumayev Elmurod Bekpulatovich
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti
dotsenti v.b, fffd (PhD), E-mail:elmurodjumayev272@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0003-7433-7706
https://doi.org/10.5281/zenodo.22861522

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy roman janrida tarixiy voqelikni badiiy idrok etish, tarixga munosabatning o‘zgarishi va badiiy talqindagi yangilanish jarayonlari tahlil qilinadi. Tarixiy romanlarda tarixiy manbalar va real voqealarning badiiy qayta ishlanishi, tarixiy haqiqat bilan ijodiy to‘qimaning o‘zaro munosabati hamda yozuvchining tarixiy jarayonlarga individual yondashuvi yoritiladi. Ayniqsa, mustaqillik davri tarixiy romanchiligida milliy tarix, tarixiy xotira, milliy o‘zlik va davlatchilik masalalarining yangicha badiiy talqin qilinishi alohida tahlil etiladi. Maqolada tarixiy shaxslar obrazini yaratishda an’anaviy yondashuvlarning o‘zgarishi, qahramonlarning ruhiy-psixologik olamini ochib berish, tarixiy voqealarni zamonaviy badiiy tafakkur asosida qayta idrok etish kabi poetik xususiyatlarga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, tarixiy roman janrida vaqt va makon, tarixiy manba, xotira, rivoyat va badiiy tafakkur munosabatining yangicha shakllari ko‘rib chiqiladi.
Kalit so‘zlar: tarixiy roman, tarixga munosabat, badiiy talqin, tarixiy haqiqat, tarixiy manba, badiiy to‘qima, tarixiy shaxs, tarixiy voqelik, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, mustaqillik davri adabiyoti.

Kirish. Millatimiz istiqlolga erishgandan so‘ng shonli tariximizni, uning yillar davomida mustabid sho‘ro tuzumining talabi bilan sir tutilgan, “qizil imperiya” siyosatidan kelib chiqib talqin qilingan sahifalari, Yassaviy, Bobur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Xoja Ahror valiy, Zangi ota, So‘fi Olloyor kabi yuzlab zotlarning nomi va asarlari yorug‘likka chiqdi. Shu mavzuda ko‘plab ilmiy, ilmiy-ommabop asarlar nashr qilindi. Ular orasida Amir Temurga bag‘ishlangan tadqiqotlar alohida bir tarmoq sifatida shakllana boshladi. Serqirra va keng qamrovli bo‘lgan buyuk sohibqiron faoliyati xolis, tarixiy haqiqatga mos tarzda o‘rganilishi natijasida Amir Temurning adolatsizlik bilan qoralanib kelgan nomi oqlandi, xotirasini abadiylashtirishga qaratilgan qator ishlar amalga oshirildi.

Amir Temur yuritgan adolatli va oqilona siyosat, diniy bag‘rikenglik, markazlashgan davlat barpo etilishi o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-madaniy taraqqiyotida, dunyo tamadduning yanada yuksalishida alohida ahamiyatga ega. Bu tarixiy haqiqatni tan olmay va e’tirof etmasdan, sohibqiron yashagan davrni, uning keyingi asrlardagi ta’sirini va umumbashariy ahamiyatini baholab bo‘lmaydi.

Adabiyotlar tahlili. Amir Temur hayoti va faoliyati bilan bog‘liq asarlar sohibqiron hayotlik chog‘idayoq boshlangan va hozirgacha davom etmoqda.

Sho‘ro davrida yaratilgan B.G‘afurovning “Tojiklar”, G.Hidoyatovning “Mening jonajon tarixim” asarlarida Amir Temur va sabadorlar o‘zaro muxolf sifatida tasvirlangan. Bu, albatta sobiq mustabid tuzum talabidan kelib chiqib, tarixga noxolis yondashuv edi.

Milliy mustaqillik tarix va tarixiy shaxslarni, ularning boy ma’naviy merosini xolis, jahon adabiyoti kontekstida zamonaviy ilmiy metodologik usullar asosida o‘rganish uchun qulay imkoniyatni yuzaga keltirdi.

Milliy adabiyotshunosligimizda tarixiy roman genezisi, rivojlanishi, uning o‘ziga xos spetsifik xususiyatlari, poetikasi va tasnifi xususida bir qator dissertatsiya, monografiya, risola va ilmiy maqolalar mavjud.

Jahon tarixida buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temur (1336-1405) shaxsiyati, davlat boshqaruvi, sertarmoq faoliyatini o‘rganish va baholash sohibqiron hayotlik chog‘ida boshlangan va bugungacha davom etmoqda.

Ko‘hna Sharqning dongdor muarrixlari Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla-as-sa’dayn”, Ibn Arabshohning “Ajoyib-al maqdur fi tarixi Tiymur”, Mirxondning “Ravzatus- safo”, g‘arblik elchi va ayg‘oqchi de Klavixoning “Kundalik”, sayyoh Herman Vamberining “Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi” asarlarida Amir Temur haqida nodir tarixiy ma’lumotlar uchraydi.

Sharq va G‘arb, hatto Amerika tarixchilariniing asarlarida Amir Temurning siyosiy-ijtimoiy, harbiy va yaratuvchilik faoliyati to‘g‘risida turli tuman, hatto bir-birini inkor qiladigan qarashlar uchraydi. Shuningdek, Amir Temur hayoti va faoliyati haqida A.Yakubovskiy, I.O.Shiltberger, Foma Metseopskiy, L.Lyangle, T.Granovskiy, M.Ivanin, V.Bartold, L.Zimin, M.Gerasimov kabi olimlarning salmoqli tadqiqotlari mavjud[1].

O‘zbekistonda Uchinchi Renesans poydevori yaratilayotgan yangi davrda o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda tarixiy romanlarning ahamiyati o‘ziga xos. Bu haqiqatni muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlari to‘la tasdiqlaydi: “Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak[2]

Hozirgi kungacha jahon va o‘zbek adabiyotida buyuk sarkarda va davlat arbobi, sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga turlicha nuqtayi nazardan tarixiy-ilmiy, badiiy jihatdan yondashilgan va ochib berilgan. Jumladan, Sharfiddin Ali Yazdiy, Nizomiddin Shomiy, Ibn Arabshoh, Hofizi Abro‘, Abdurazzoq Samarqandiy, Ahmad Fasihiy, Rui Gonsale de Klavixo, B.Mignanelli, G.Gudrini, M.Rossati, K.Yenoki, R. Grusse, L.Keren,Le Ru, Ye.Ross, X.Xukxem, L.Komarov, F.Manq, G.Golombek, A.Derg, M.Rossati, Zakiy Validiy To‘g‘on, M.Sharmua, T.Granovskiy, S.Solovev, M.Ivanin, V.Bartold, A.Yakubovkiy, A.Snesarov, I.Petrushevskiy, N.Konrad, V.Furnyu, M.Monten, I.Shildberg, J.Boden, G.Postel, P.Djiovio, P.Petro, P.Brachchiolini, Prato, Piy 2, Kambini, B.Fregazo, T.Spandujino, I.Mo‘minov[3] , A.O‘rinboyev, A.Axmedov, B.Ahmedov, T.Fayziyev, A.Saidov, O.Bo‘riyev, I.Yoqubov, G‘.Murodov, D. Rasulmuhammadova, M.Hamroyeva tarixiy-ilmiy jihatdan o‘rganishgan, Hotifiy, A.Navoiy, Fitrat, Oybek, B.Ahmedov, A.Oripov, O.Yoqubov, E.Vohidov, X.Davron, J.Subhon, G‘.Karim Amir Temur haqida badiiy asarlar yaratishgan.

Turli daraja, turli saviyadagi ilmiy izlanishlarda jahongirning shaxsi, tadbirkorligi, bunyodkorligi, ilm-fan, san’atga homiyligi, harbiy mahorati, davlat boshqaruvidagi o‘ziga xos siyosati tadqiq etilgan bo‘lib, Amir Temurning murakkab hayoti va ziddiyatlarga to‘la faoliyatiga berilgan baho ham har xil. Buning sabablaridan biri o‘sha tadqiqotlar yaratilgan davrda tadqiqotchining qo‘lida mavjud manbalar bilan ham bog‘liq. Shundan kelib chiqsak, Amir Temur haqida xolis va ishonchli manbalarga asoslanib yozilgan ishlarni saralab, jahon tillariga tarjima qilish va internet tarmoqlariga joylashtirish zarurat ekanligi ayonlashadi.

D. Rasulmuhammedova “Istiqlol davri o‘zbek dramaturgiyasida Amir Temur obrazini yaratish muammolari”, G.Yusupova “Hozirgi o‘zbek romanlarida Amir Temur va temuriylar obrazining badiiy talqini” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishgan. Bu

[1] Бу ҳақда қаранг: Тамерлан: Эпоха.Личность. Деяния/ Сост., обр и подг. Текста Р.Рахманалиева. – Москва, 1992. – 544 с.

[2] Ўз.Р. Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий боғида барпо этилган Адиблар хиёбонинг ташрифи чоғида сўзлаган нутқидан. –Тошкент, 2020 йил, 20 май.

[3] Бу ҳақда қаранг: Тамурлан. – Москва: «ГУРАШ», 1992.– С 542

tadqiqotlarning birinchisiga obyekt sifatida dramatik tur tanlangan[4] . Ikkinchisiga esa Amir Temur va temuriylar obrazining adabiyotda aks etishi qaratilgan, unda muammo bizning ishimizdan farqli ravishda turli obrazlar masalasi tarzida qo‘yilgan[5] , adabiyotshunos I.Yoqubov esa “Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi» monografiyasida roman janrini modifikatsiyaga uchrashi nuqtayi nazaridan o‘rgangan[6]. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, bizning mavzumiz mutlaqo boshqa yo‘nalishda, ya’ni “Ulug‘ saltanat” roman-tetralogiyasidagi obrazlarning badiiy poetik talqiniga bag‘ishlanganligi bilan farqlanadi.

Bundan tashqari, Z.Yaxshiyeva “M.Alining “Ulug‘ saltanat” tetralogiyasida tarixiy voqelik va uning ifodasi” deb nomlangan tadqiqotida masalani tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima tarzida qo‘ygan[7]. Adabiyotshunos A.Alimbekov “Yulduzning besh qirrasi” degan kitobida Muhammad Ali ijodini umumiy tarzda tadqiq va talqin qilgan[8].

I.Mo‘minov, Klavixoning kishini hayratga soladigan bunyodkorlik ishlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rganligi, shu bois uning yozganlarida “ voqeani buzib tasvirlash yoki bo‘rttirib yuborish holatlari bo‘lmasa kerak”,- deydi.

Samarqand haqida so‘z borar ekan, olim bu shaharning miloddan oldingi 4-5 asrlarda barpo qilinganligi, uning Zarafshon vodiysi yuqori qismi markazida joylashganligi, miloddan oldin 329 yilda Iskandar Zulqarnayn– Aleksandr Makedonskiy shaharni ko‘rib hayratlanganligini va Samarqandning arablar bosqini markaziy tayanch bo‘lganligini eslatadi.

Amir Temur Samarqandda qurdirgan masjid, ko‘prik, kanal, karvonsaroy, hammom, madrasalar, irrigatsiya inshootlari, shuningdek, shahar tipidagi Ohangaron qishlog‘ini qurdirgan.

I.Mo‘minov Amir Temur Samarkand atrofida bunyod ettirgan bog‘lar to‘g‘risida to‘xtalib o‘tgan. Ma’lumki, o‘rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan bu bog‘lar xususidagi ilk ma’lumotlar o‘tmish tarixchilari, shoirlari, sayyohlari asarlarida tilga olingan.

Amir Temur shakliga ko‘ra ikki xil: 1)geometrik jihatdan to‘g‘ri to‘rtburchak shaklda bo‘lib, har tomoni taxminan 1 km masofaga cho‘zilgan. Sahnidan o‘tgan ariqlar ularni teng 4 qismga ajratib turgan. Atrofidagi baland paxsa devorlarning har burchagida minora bo‘lgan. Markazda saroy joylashgan. Bunday bog‘larning darvozalari shahar tarafga qaratib qurilgan; 2) tuzilishi geometrik shaklda bo‘lmagan, tabiiy daraxtzor va chakalaklar bag‘rida barpo etilgan bog‘¬lar. Bunday bog‘lar hukmdor shikor (ov) qilishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, asosiy qismi tabiiy, qo‘l tekkizilmagan holda saqlangan. Ularning kichik bir qismigagina dam olish uchun saroy, ko‘shk va chodirlar qurilgan, hovuzlar qazilib, favvoralar o‘rnatilgan. Bu turdagi bog‘larning o‘simlik va hayvonot dunyosi nihoyatda boy bo‘lgan

Amir Temur shaxsi, faoliyati aks etgan etgan asarlarni shartli ravishda uchga bo‘lish mumkin:

1. Amir Temur hayot davrida uning zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlar.
2. Uning vafotidan keyin yaratilgan asarlar:

A) X1X asrgacha yaratilgan asarlar;
B) 1920-30 yillarda yaratilgan asarlar;
S) 1970 yillarda yaratilgan asarlar;
D) mustaqillikdan keyin yaratilgan asarlar.

---

[4] Расулмуҳаммадиева Д. Истиқлол даври ўзбек драматургиясияда Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. Фанлари номз…дис. Автореф.. –Тошкент, 2000. – 21 б;

[5] Юсупова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадиий талқини. Филол. Фанлари номз…дис. Автореф.. –Тошкент, 2005. – 26 б

[6] Ёқубов, И.Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: “Nurafshon business”, 2021. – 336 б.

[7] Яхшиева З. “М.Алининг “Улуғ салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг ифодаси” – Тошкент: GlobeEdit 2021. 200-б.

[8] Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси.Тошкент, “Ўқитувчи” НМИУ. 2020. 390 б.

3. Xorijda yaratilgan asarlar.

Amir Temur hayoti va faoliyati to‘g‘risida ma’lumot beruvchi ilk manba G‘iyosiddin Ali ibn Jamol al-Islom Yazdiyning “Ro‘znomai g‘azavoti Hindiston” (“Hindistonga yurish kundaliklari”) risolasi bo‘lib, u sohibqironning shaxsiy ko‘rsatmasi bilan 1399-1403 yillarda yozilgan. Biroq bu asar Amir Temurga “g‘ayritabiiy iboralarsiz va kitobxon uchun tushunarli uslubda” emas, aksincha dabdali, jimjimadorligi, asosiy mavzuga uncha aloqador bo‘lmaganligi sababli ma’qul tushmagan.

Xulosa. Demak, haqiqatni kuylash uchun, haq so‘zni yozish uchun ijodkor istasa, imkon topa olishi mumkin. Aksariyat shoirlar partiyani madh etayotgan paytda tili, dini, qadriyatlari oyoq osti bo‘layotgan xalq dardini kuylasa bo‘larkan. Faqat buning uchun ijodkor ona-xalqining qalbiini va qadrini his qilsa, shuning o‘zi yetarli. Bu asarlar o‘z davri uchun jasorat edi, desak mubolag‘a bo‘lmas. Chunki, chin ijodkor avvalo jasoratli bo‘lishi shart, qo‘rqoq odam hech qachon millat uchun jonini xatarga qo‘ya olmaydi. Ma’naviy jasoratli shaxsgina haqiqatni ko‘ra oladi va har doim haqiqat tomonida turishni o‘z hayotiy pozitsiyasiga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Тамерлан: Эпоха.Личность. Деяния/ Сост., обр и подг. Текста Р.Рахманалиева. – Москва, 1992. – 544 с.
2. Ўз.Р. Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий боғида барпо этилган Адиблар хиёбонинг ташрифи чоғида сўзлаган нутқидан. – Тошкент, 2020 йил, 20 май.
3. Тамурлан. – Москва: «ГУРАШ», 1992.– С 542
4. Расулмуҳаммадиева Д. Истиқлол даври ўзбек драматургиясияда Амир Темур образини яратиш муаммолари. Филол. Фанлари номз…дис. Автореф.. –Тошкент, 2000. – 21 б;
5. Юсупова Г. Ҳозирги ўзбек романларида Амир Темур ва темурийлар образининг бадиий талқини. Филол. Фанлари номз…дис. Автореф.. –Тошкент, 2005. – 26 б
6. Ёқубов, И.Мустақиллик даври ўзбек романлари поэтикаси. – Тошкент: “Nurafshon business”, 2021. – 336 б.
7. Яхшиева З. “М.Алининг “Улуғ салтанат” тетралогиясида тарихий воқелик ва унинг ифодаси” – Тошкент: GlobeEdit 2021. 200-б.
8. Алимбеков А. Юлдузнинг беш қирраси.Тошкент, “Ўқитувчи